

FOLKLOR-ETHNOGRAFIK TOMOSHALARNING SHAKLLANISHI

Karimova Muqaddas Abdisamatovna

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Teatr san'ati" ixtisosligi 2-kurs mustaqil izlanuvchisi PhD*

Annotatsiya: *ushbu maqolada o'zbek xalqining boy va rang-barang folklor merosiga egaligi, uning etnik tarkibining serqatlamligi, tarixiy taraqqiyot yo'li, diniy tasavvurlari to'g'risida fikr yuritilgan. Folklor namunalarini to'plash tarixida qadimgi yodnomalar, tarixiy yodgorliklar, diniy va ilmiy asarlarning tahlili yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *folklor, etnografiya, tomosha, madaniyat, san'at, obraz, urf-odat, marosim, kompozitsiya, syujet.*

Аннотация: *в данной статье разказывается о богатом и красочном фольклорном наследии узбекского народа, яркости его этнического состава, пути исторического развития и о его религиозных воображениях. Также освещается история сбора образцов, анализ древних памятных предметов, исторических памятников, религиозных и научных трудов.*

Ключевые слова: *фольклор, этнография, зрелище, культура, искусство, образ, традиция, ритуал, композиция, сюжет.*

Abstract: *This article discusses the rich and colourful folklore heritage of the Uzbek people, the vividness of its ethnic composition, the path of its historical development and its religious imagination. The history of collecting samples, analyses of ancient memorabilia, historical monuments, religious and scientific works are also covered.*

Keywords: *folklore, ethnography, spectacle, culture, art, image, tradition, ritual, composition, plot.*

Xalq ijodini o'rganuvchi va takomillashuvini tadqiq qiluvchi folklorshunoslik fani soxa turlaridagi o'ziga xoslikni qadimgi dunyo estetik tafakkuriga bog'lab tahlil qiladi. Xususan, qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining O'rta Osiyo xalqlariga tegishli afsona va rivoyatlari, urf-odat hamda marosimlari haqidagi yozma ma'lumotlar folklorshunoslik fani uchun tayanch manbaa xisoblanadi. Folklorshunoslarning ta'kidlashlariga ko'ra folklorning dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan bog'liq xodisa. Uning paydo bo'lishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari, dunyo qarashlari, urf-odat va marosimlari hal qiluvchi o'rin tutgan. Ular nihoyatda sodda shakldagi, turli undov-xitoblar va voqealar bayonidan iborat bo'lib: -mehnatni yengillashtiruvchi, ruhni tetiklashtiruvchi, xayol og'ushiga olib ketuvchi vazifalarni bajargan ertaklar va afsonalardan tashkil topgan. Shuningdek mehnat jarayonini ifodalovchi qo'shiqlarning namunalaridan iborat bo'lgan. Masalan, xalq qo'shiqlari tarkibidagi an'naviy takrorlanadigan mehnat jarayonini ta'kidlovchi undov so'zlarni bevosita qadimiy undov-xitob elementlari saqlanib qolgan shakli deyish mumkin.

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi folklor namunalari tarixiy yodgorliklarda, yodnomalarda, diniy yoki ilmiy asarlarda saqlanib qolgan. Ular-miflar, jangnoma ko'rinishidagi afsonalar, qahramonlik va pahlavonlik eposlari, qo'shiqlardan xamda maqollardan tashkil topgan. Masalan, O'rxun-Enasoy bitiklarida, Maxmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida xalqning diniy tasavvurlari animizm, totemizm va fetishizm shaklidagi e'tiqodiy qarashlarini aks ettirgan.

Ular turkiy xalqlarning animistik, totemistik va fetishistik qarashlarini qadimiy tasavvurlari tizimini tashkil etadi. Ma'lumki, qadimgi insonlar o'ziga noma'lum bo'lib ko'ringan tabiat kuchlaridan talvasaga tushar ekan, ayni paytda uni yengishga harakat qiladi, uddasidan chiqa olmay ilojisiz qolib tabiatga sig'inishi, notabiiy ko'ringan hodisalarga topinishi, ularni sirlilik darajasiga ko'tarishga olib kelgan. Natijada ularning tabiatdagi jonsiz narsalarga jonli deb qarashlari, o'zini tabiat kuchlari va hodisalari bilan aynan bir narsa hisoblashlari fanda-animizm nomini olgan.

Animizmda jon va ruhlarning borligiga ishonch bo'ladi. Uning yorqin namunasi ertaklarning qadimiy motivlarida o'z ifodasini topgan. Masalan- «Oq bilaxon» ertagida yigitning toshga aylanib qolishi yoki «Yoriltosh» ertagida toshning yorilish mo'jizasi va qizni yovuz kuchlardan saqlash uchun bag'riga olib, yana yopilishi, «Yalmog'iz kampir» ertagida odamlarni toshga aylanib qolishi, «Qilich botir»da esa qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar animistik tushunchalar natijasida yaratilgan badiiy to'qimalardir. Yuqoridagi ertaklarda quyidagicha iltijolar bor-“Yoril,yoril, toshlarey”, “Ochil,ochil qamishlar”, “Sim-sim och eshigingni”, bunday yolvorishlar usha narsada jon bor degan tushunchaning timsolli ifodasidir. Shuningdek, to'ylarda yoqiladigan olov, quyosh va oy tutilganda- qozon, jom, chelaklarni taraqlatish holatlari ham animizm unsurlarini xalq tasavvurida saqlanib qolgan izlari hisoblanadi. Totemizm, odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik, ba'zan jonsiz narsa yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch-e'tiqodidan kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan o'zbek urug'larining ota-bobolari quyosh, suv, olovga sig'ingan, keyinchalik esa ot, ho'kiz, bo'g'iz ilon, bo'ri, it va boshqa hayvonlarga e'tiqod qo'yganlar. Masalan bo'rini-balo, ofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi kuch, e'tiqod qiluvchi urug' yoki qabilalarning ajdodlari deb bilganlar. Shu tariqa totemlar ramzi yuzaga kelgan. Demak totem- u yoki bu urug'ning e'tiqod qo'ygan ramziy himoyachisidir. Totemlar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha afsonalar mavjudki, ularda ko'proq ot va bo'ri timsoli tasvirlangan.

Arxeologik qazilmalarda yarmi ot yarmi odam sifat ishlangan rasmlar, ba'zi dehqonlar ekin maydonlari, polizlarida otning kalla suyagini qo'riqchi sifatida qo'yilishi otga sig'inish haqidagi e'tiqodning timsoli hisoblanadi. Qadimgi Baqtriyadagi Zariasp deyilgan geografik joy nomi aslida- ot kulbtiga aloqador bo'lgan urug' maskanidir. O'zbek xalq dostonlarida- G'irotda, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko'k kabi ot timsollarining g'oyat katta o'rin tutishi ham be'jiz emas. Demak xalq orasida tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushunchalar va e'tiqodlar animistik xamda totemistik qarashlar natijasidir.

Fetishizm - jonsiz narsa va predmetlarga sig'inish, ularni tumor sifatida saqlash, ularda kuch-qudrat mavjud deb anglashdir. Xalqimiz orasida hayvonlarning pati, tishi, kalla suyagi, shoxi, terisini ramz sifatida saqlash, o'zi bilan olib yurish, bo'yniga yoki kiyimiga taqish odati keng saqlangan. Fetishizm unsurlari folklor asarlari tarkibida ham mavjud. Masalan pari, dev yoki sehrli narsalarni asar qahramoniga berish yoki uning sehridan foydalanish folklor ijrolarida ham saqlanib qolgan.

Folklor tomoshalarining shakllanishi va rivojida qadimgi miflarning ham ahamiyati katta. "Mif" aslida yunoncha "mifos" so'zidan olingan bo'lib-afsona, rivoyat, asotir degan ma'nolarni anglatadi. Bu xususda O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida shunday izoh bor. "Qadimgi odamning borliq, olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy xodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budalar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini hayoliy uydirma vositasida izohlasada, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan".

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, mif so'zi milliy adabiyotda-rivoyat va asotirlarga nisbatan qo'llaniladi chunki, xalq badiiy tafakkurining eng qadimgi namunalari miflar bo'lib, ular keyinchalik urug'lar yoki qabilalar birlashgandan so'ng iqtidorlilar jamoaviy ijodida boyigan va rivojlangan. Miflarning eng qadimiy namunalari bizga «Avesto» orqali yetib kelgan bo'lsa, ma'lum qismi xalq og'zaki ijodiyotining turli janrlari tarkibida saqlanib qolgan. Miflarda ibtidoiy inson tafakkurining turli qirralari namoyon bo'ladi. Ularda odamning- hayotga, jamiyatga tabiatga bo'lgan munosabati aks etadi. Mifologiya insoniyat jamlagan ma'naviyatni yozma shaklda mujassam etgan bo'lib ularda yuksak tarbiyaviy-axloqiy masalalar o'z ifodasini topgan. Chunki insonlar porloq kelajakni orzu qilib, uni amalga oshirishga umid ko'zi bilan boqqan, Demak ajdodlarimiz orzu-umidlarini rivojlanish rejasini o'z miflarida ifodalagan.

Qadimgi Greklarda "Mif"- xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima afsona ma'nosini anglatgan. Mifologiya esa ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishi asoslarini o'rganadigan yo'nalish hisoblanadi.. Insonning tabiatga qarshi kurashdagi ojizligi, uni noma'lum ko'ringan hodisalarga javob topishga, qandaydir tushuncha va tasavvurlar yaratishga majbur etgan. Natijada-bo'ron, zilzila, suv toshqini, sel, vulqon oltilishi tabiiy chaqmoq yong'in ofatlarga qarshi kurasha oluvchi qudratni izlashga olib kelgan. Izlarning natijasi-yaxshilik va yomonlik haqidagi mifalogik tasavvurlar maxsulini vujudga keltirgan. Olam haqidagi tasavvurlar ana shu tarzda yuzaga kelgan bo'lib, u o'z navbatida -osmon, oy, quyosh hamda turli xil hayvonlar haqidagi xudolarni, g'ayri tabiiy tasvirlangan pahlavonlar haqidagi miflarni hosil qilgan. Mazkur miflar kishilarga ruhiy kuch, ertangi kunga ishonch, tetiklik, osoyishtalik baxsh etgan, insoniyatni g'alabaga chorlagan. «Kishilar yaxshilik, baxt-

saodat, quyosh nuri, issiqlikni yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo'yib, baxt o'lkasi va baxtsizlik o'lkasi degan miflarni yaratganlar. Ko'pchilik mifologik timsollar mana shu ikki o'lka va ular o'rtasidagi kurash jarayonida gavdalanadi.

Zardushtiylik kitobi «Avesto» da ikki yaratuvchi kuch-yaxshilik va yomonlik Axuramazda va Axriman qiyofasida namoyon bo'ladi. Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, obodonchilik va ezgu kuchlarning xudosidir. Axriman esa, barcha yovuzlik va yomonlikni boshqaradi. U Axuramazdaga qarshi chiqadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob uqubat, mashaqqat, kulfat keltiradi. Axriman katta qudratga ega bo'lsada, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari- yaxshilik oldida mag'lubiyatga uchraydi. Avestoda yorug'lik manbai quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov esa quyoshning bir parchasidir. Shuning uchun ham inson olovni muqaddas hisoblab, otashkabalarda saqlar edi. Bunday otashkabalar Xorazmda, Jonbos qa'lada topilgan. Bobolarimizning Muqaddas kitobida Mitra-quyosh va yorug'lik xudosi, Noxit- obodonchilik va farovonlik xudosi, Humo- baxt, tole va davlat xudosi, Anaxita va Xubbi hosil va suv xudosi. Olov va suvni muqaddas xisoblagan bobolarimiz Anaxita timsolida so'v va go'zallik ramzini ayol qiyofasida tasvirlaydi. Anaxita-zabardast, xushqomat, kamarini mahkam bog'lagan, to'g'ri so'z, marhamatli go'zal qiz. U kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. Mirrix-urush va g'alaba xudosi, Qayumars-ezgulik xudosi tasvirlarini ham o'zbek xalqining mifologik qarashlari bilan bog'liq xalq marosimlari va folklor namunalari orasida uchratamiz.

Eron va O'rta Osiyo xalqlari orasida Jamshid haqidagi mif namunalari keng tarqalgan. Ularda tasvirlanishicha Jamshid najotkor qahramon va yaxshilikning timsolidir. «Avesto»da hikoya qilinishicha, u adolatli podsho bo'lgan. O'sha paytda yer yuzida qahraton qish ham, jazirama issiq ham yo'q edi. Biroq ming yillik podsholikdan so'ng qahraton qish boshlanib, kishilarga ofat keltiradi, yaylovlarni, o'tloqlarni suv bosadi. Jamshid shunda odamlarni qutqara boshlaydi, katta to'g'onlar qurib, ariqlar ochadi, kishilarni mol-mulkini asrab qoladi. Bu afsona Firdavsiyning «Shohnoma» va Alisher Navoiyning «Tarixi mulki Ajam» asarlarida o'rin olgan. Shuningdek, Tabariy va Beruniy asarlarida ham mazkur timsol haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak xalq o'rtasida «Qissai Jamshid»ning og'zaki va qo'l yozma variantlari keng tarqalgan. Demak, qahramonliklar miflar va mifologik timsollar shaklida xalq ijodida, uning folklorida muqaddas sanalib, xalq o'rtasida og'izdan-og'izga o'tib, bizgacha yetib kelgan. «Avesto»da tasvirlangan pahlavonlar to'g'risidagi afsonalar o'zbek folklorida xam uchraydi. «Odami Od» hikoyasi shu jihatdan o'ziga xosdir. Bu hikoyada insonning zo'r kuch- qudratga ega bo'lishi zarurat ekanligi haqidagi orzu-umidlari o'z ifodasini topgan. Unda bayon qilinishicha, o'tgan zamonda Nuh payg'ambar bo'yi bulutga yetadigan bir duradgor ustani chaqirib, kema yasab berishni so'rabdi. Bu paxlavon ismi -Odami Od ekan. U nihoyatda baland bo'yli va kuchli bo'lib, Nuh payg'ambarni yelkasiga mindirib, toqqa olib chiqib, to'rtta katta chinor olib dengiz bo'yiga ravona bo'libdi, kemani bitirib, odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o'zi kemani tortib

ketibdi. Bu mavzu xalq baxti uchun kurashadigan qahramonlarni ulug'laydigan folklorlarning asosiga aylanadi.

“Er-Xubbi” bilan bog'liq bo'lgan miflar Xorazm va Farg'ona vodiysida keng tarqalgan. Ularda Yer Xubbi ham, Odami Od kabi eng qudratli va marxamatli qahramon sifatida namoyon bo'ladi.. U yetti yuz yil davomida Amudaryoda yashagan va baliq bilan ovqatlangan. Jamshid taxtga o'tirgandan so'ng Xubbi dom- daraksiz g'oyib bo'lgan. Shuning uchun Xorazmda Xubbiniyoz, Xubbi kulini, Buxoro vohasidagi Xo'ja Xubbon qudug'i nomlarini mana shu mifologiya bilan bog'liq deb taxmin qilish mumkin.

Mazkur miflar odamlar o'rtasida polvonlarni ulug'lash ular qudratini muqaddas deb bilishga, qahramonlar mavjud ekanligiga ishontirish muljallanganligi bilan qimmatlidir.

Bu miflar mohiyatidan ma'lum bo'ladiki insonlar dastlab xayoliy timsollarni rivojlantirib tarixiy shaxslarning vatanparvarlik va qahramonligini madh etuvchi rivoyatlar yaratish darajasiga ko'tarildi. Bunday qahramonlarga To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush, Alpomish va Go'ro'g'li kabi qahramonlarni misol qilish mumkin. Tarixiy shaxslar yoki badiiy to'qimalarni Folklorshunoslar «To'maris», «Shiroq» afsonalari tarixiy voqea va hodisalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan jangnoma tipidagi qadimgi epos namunalaridan ekanligini asoslashgan. Ayollar matonati va jasurligi haqidagi «To'maris» afsonasi - jangovar ayollar haqida yaratilgan ijod namunasidir. Bu afsonaning qisqacha mazmuni Gerodotning «Tarix» asarida keltiriladi. Afsonada Eron shohi Kir bilan massagetlar qabilasi o'rtasida yuz bergan jang voqealari va Tumarisning g'alabasi tasvirlanadi.

«Shiroq» afsonasida esa, Eron shohi Doro bilan Sak qabilalari o'rtasida yuz bergan janglar haqida hikoya qilinadi. Bu afsonaning kisqacha mazmuni yunon tarixchisi Polienning «Harbiy hiylalar» nomli kitobida keltirilgan. Afsonada xalqparvarlik, vatanparvarlik va ozodlikni sevish kabi tushunchalar qahramon Shiroq timsolida ulug'lanib, bosqinchilik, zulm va zo'rlik qoralanadi.

Har ikki afsona syujetida ham qadimiy eposlardagi qahramonlik an'analari ulug'lanadi. Ularda uchraydigan xarbiy hiyla xalqparvar qahramonni mast qilib asir olish hamda, uning jangovarlik xususiyatini singdirish motivlari an'anaviy dostonlarga xos tarzda izoxlanadi. Bu motivlar folklor ijrolarida uchramaydi. Chunki, folklor namunalari iste'dodli ijodkorlar tomonidan yaratilib, o'z qabilasi va urug'lari odatlarini, e'tiqodini, orzu - istaklarini, tabiat bilan bo'lgan munosabatlarini hikoya qiladi. Qabila yoki urug' a'zolarga ma'qul tushgan, ularni ulug'lagan folklor namunalari og'izdan og'izga o'tib, jamoaviy ijod maxsuliga aylangan. Ular shu tariqa jamoaviy ijod asosida takomillashib, umumxalq mulkiga aylangan. Shuning uchun folklor ijrochilari-dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, latifago'y, askiyachilar jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni hamisha «xalqniki» deb e'tirof etgan. Natijada yakka ijodkor qanchalik iste'dodli bo'lmasin, jamoa ijodining an'analari bo'ysungan, xalq hayoti, xalq didi va talabiga moslashishga harakat qilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki xalqning ijod maxsuli bo'lgan folklor yozuv paydo bo'lmasdan ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va kishilar o'rtasida tarqalishi ularning ijrochilari yaratgan an'nalar bilan bog'liqdir. Folklorning jamoaviy ijro xususiyati uni xalq

tomosha san'ati turlaridan ajratib turadi. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi folklor namunalari tarixiy yodgorliklarda, yodnomalarda, diniy yoki ilmiy asarlarda saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Murodova "Folklor va etnografiya" -T.:Aloqachi 2013y 11b
2. Djo'raev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – Toshkent, 1994; Yana osha. O'zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari. Filol. Fanlari dokt. diss. avtoref.- Toshkent, 1996;
3. Pirmatova M. O'zbek taqvim folklori: Filol. Fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008
4. Navro'z, navro'z bayrami bilan bog'liq afsonalar, qo'shiqlar, odatlar. Tuzuvchilar: T.Mirzaev, M.Jo'raev-Toshkent: Fan, 1992.
5. M.Jo'raev. Navro'z bayrami. -b 19-20